ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026/ № 1. 1-2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Yo'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 12.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 12.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

PARDAYEV AZAMAT BAXRONOVICH
So‘zning lingvistik tabiati xususida 7

HAMIDOVA MUHAYYOXON OBIDOVNA
Shukur Xolmirzayev nasrida milliy mentalitetning badiiy talqini 11

ABDURAXMONOV XUDOYNAZAR ABDIRAYIMOVICH
Mavhum otlarning kognitiv-semantik va diskursiv xususiyatlari:
zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida tahlil 16

ASADOV TO‘LQIN HAMROYEVICH
Predmet-belgi ma’noli ayrim morfologik oraliq so‘zlarning qiyosiy-tarixiy tavsifi 22

G‘AYBULLAYEVA DILDORA FAYZULLA QIZI
O‘zbek tilidagi insonning fizik xususiyatlarini
ifodalovchi frazeonimlarning semantik-stilistik tahlili 26

NASHIROVA SHAXNOZA BURIYEVNA
Ikki tilli lug‘atlar: nazariy asoslar va tarixiy yondashuv 29

NORKUZIYEVA DILDORA
Til tizimiga kiritilgan zoonim va zoomorfizmlarning
qiyosiy tipologik tadqiqotlardagi tahlili 33

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Epitet – badiiy matnni obrazli ifodalovchi vosita 38

AVEZOVA GULNOZA KAMILOVNA
Komil Avazning nasriy asarlarida dialektizmlarning qo‘llanilishi
(«Sozanda» romani misolida) 41

AMONOVA ZAMIRA
Nemis va o‘zbek tillarida destruksiyani ifodalovchi
fe’llarning metaforik qo‘llanilishi 44

NE’MATOVA O‘G‘ILOY AKRAM QIZI
«Maxzan ul-asror” dostonining badiiy-tasviriy
vositalari va uslubiy xususiyatlari 53

TUROBOVA MATLUBA RAXMATULLAYEVNA
Sun’iy intellekt tizimlarida o‘zbek tili leksikografik bazasini
shakllantirishning innovatsion usullari 56

KO‘CHIYEVA SHABNAM ISOMIDDIN QIZI
Tilshunoslikda disleksiya va disgrafiyaning
neyrolingvistik va psixolingvistik tadqiqi masalalari 60

OZADOVA MA’MURA ERGASHEVNA
Xorazm xalq qo‘shiqlari tilidagi manglay leksemasining lingvokulturologik va
lingvopoetik xususiyatlariga doir 63

МУНДАРИЖА

ALLAQULOVA SADOQAT AXMAT QIZI
O‘zbek tilining umumiy izohli lug‘atlarida etnoleksemalar berilishining qiyosiy tahlili 65

O‘RAZOV ALISHER DONIYOROVICH
O‘zbek tilida leksemaning semantik tabiati..... 68

JUMAYEVA KUMUSH TURSUNALIYEVNA
O‘zbek tili o‘zlashma qatlam somatik lesemalarida leksik tipologiya..... 72

MURODQULOVA IRODA SHAROFIDDINOVNA
Semurg‘ obrazining lingvomadaniy talqini (o‘zbek xalq dostonlari misolida)..... 76

ADABIYOTSHUNOSLIK

АСРОРОВ АКБАР, БОЛТАЕВ МАРДОН
Шоҳона сатрлар соҳиби – Султон Убайдий..... 80

SAMATOV SHOMAT, XO‘JANOVA OZODA
Buyuk shoir xotirasiga munosib haykal 85

ABDULLAYEV RAMAZON
Composing tatabbu‘ poetry in the time of Mu‘izzī and after him..... 88

JEPBAROWA SAÝAT KURBANMIRATOWNA,
EGENMURADOV ARZUV ANNAMIRATOVICH
Magtymguly Pyragynyň döredijilik äleminde möwlana Lutfynyň edebi poetik täsiri 93

ABDUXALIQOVA HILOLA G‘ULOM QIZI
XVIII–XIX asrlar o‘zbek dostonlarida tasavvufiy talqinlar 97

PAYG‘AMOVA SHIRIN JAKBARALI QIZI
Analitik folklorizmlarning poetik xususiyatlari 100

JAVLIYEV POYONBEK SHAVKAT O‘G‘LI
Usmon Azim nasrida lirik ohang..... 103

FERUZA RASULOVNA RASHIDOVA
The depiction of internal monologue as a form of artistic psychologism
in the novels of the Bronte sisters 106

TA’LIM

MASHARIPOVA NARGIZA OTAXONOVNA,
BAXRAMOVA MALIKA MUZAFFAROVNA
Sun’iy intellektli o‘yin yordamida inglizcha so‘z boyligini oshirish
(o‘zbek madaniyati asosida)..... 109

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SO'ZNING LINGVISTIK TABIATI XUSUSIDA

Pardayev Azamat Baxronovich,
Samarqand davlat universiteti,
o'zbek tilshunosligi kafedrasi professori

So'z tushunchasi tilshunoslik tarixida markaziy o'rinni egallasa-da, ammo bu borada shu paytga qadar yagona fikrga kelinmadi. Tilshunoslik tarixida so'zga yuzga yaqin ta'riflar berilgani ma'lum. Har bir tilshunos so'zga o'zi chuqurroq shug'ullangan mezon nuqtai nazaridan kelib chiqib baho berishga harakat qilgan. Berilgan ta'riflar qaysi bir jihati bilan o'zini oqlasa-da, lekin barchaga ma'qul bo'lgan, ushbu lingvistik birlikning mohiyatini to'laligicha qamrab oladigan ta'rif haligacha mavjud emas.

Jahon tilshunosligida so'zchalik ko'p ta'riflangan til hodisasi yo'q. Nega nomdor tilshunoslar so'zni ta'riflashga ojiz qolishib, so'zdan chekinishga, hatto undan voz kechishgacha borishdi?!. Bu so'zning chigal hodisaligidan emas, balki uning mohiyatini cheksizligidan dalolat beradi. Ammo uning atrofidagi bahs-munozaralar hamon tugagan emas, hamma uchun ma'qul ta'rifi ham berilmadi. Jumladan, «So'z tilning eng kichik ma'noli birligi bo'lib, gap tuzish uchun nutqda erkin tiklanish xususiyatiga ega» (B.Golovin), «So'z - tilning eng konkret birligi» (A.Reformatskiy), «So'z tilning eng muhim birligi, chunki so'zda til strukturasining barcha asosiy elementlari birlashadi» (F.Fortunatov), «Tildagi ma'noli tovushlardan bo'lak holda ma'no ifodalaydigan tovush so'z deyiladi» (L.Barannikova), «So'z - tovushlar bilan ma'no birligi» (A.Potebnya), «Muayyan ma'no bilan muayyan tovushlar kompleksining muayyan grammatik qo'llashga imkon beradigan bog'lanishi (assotsiatsiyasi) so'z deyiladi» (A.Meye), «So'z murakkab til hodisalaridan biri bo'lib, u til birliklari (morfema, frazeologik birlik) qatorida alohida, markaziy o'rin tutadi»(U.Tursunov va boshqalar) va hakozo.[1] Tilshunoslikda so'z haqidagi ta'rif va izohlarning ko'payib ketganligi va oqibatda turli chalkashliklar kelib chiqqanligi sababli L.V.Shcherba so'zning umumiy ta'rifini yaratish mumkin emas degan fikrga keldi.[2] A.M.Peshkovskiy so'z tilshunoslar uchun yechilmagan jumboq deb baholadi.[3]

Ferdenand de Sossyur so'z haqida shunday degan edi: «So'z, uning tavsifi bilan bog'liq barcha qiyinchiliklardan qat'i nazar, til mexanizmida markaziy o'rinda turadi».[4] Tilshunoslikda so'z terminidan voz kechish masalasi Ferdenand de Sossyur nomi bilan bog'lanadi. Bu Sossyurning «tilning konkret birliklarini so'zdan qidirmaslik kerak» mazmunidagi gapini noto'g'ri talqin qilinishi oqibatida tilshunoslikda muammolar ko'paydi. Ammo keyinchalik Ferdenand de Sossyur so'zdan butunlay voz kechish tarafdori bo'lmaganligini uning qo'lyozmalarini maxsus o'rgangan N.A.Slyusareva u so'zni rad qilmaganligini, faqat so'zning sath xarakterini sezgan holda, uning tarkibidagi boshqa birliklarni – morfema va fonemalarni aniqlashga intilganligini ma'lum qiladi.[5]

Sharl Balli to'g'ridan-to'g'ri so'z tushunchasidan voz kechishni taklif qiladi: «Birinchi qarashda so'z tushunchasi aniqqa o'xshab ko'rinadi. Aslida bu tushuncha tilshunoslikdagi eng noaniq tushunchalardan biridir. So'z tushunchasi noaniq ekan, undan voz kechmoq kerak».[6]

V.A.Kochergina so'z so'zlik xususiyatini namoyon qilishi uchun quyidagi tamoyillarga bo'ysunishi kerakligini uqdiradi: 1) fonetik butunlik; 2) semantik valentlik; 3) ikki (qo'sh) urg'uli bo'lmaslik; 4) leksik-grammatik butunlik; 5) yaxlitlik.[7] D.N.Shmelev ham so'zning o'ndan ortiq muhim xususiyatlarini sanaydi: 1) fonetik shakl, 2) semantik valentlik, 3) orasiga boshqa element kiritish mumkin emasligi, 4) bir urg'uga ega bo'lish, 5) leksik-grammatik xoslanish, 6) tovush sostavi va ma'nosining turg'unligi, 7) nutqda qayta

[1] Bu haqida kengroq ma'lumot olish uchun qarang: Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент: Фан, 1977. – Б.4-5.
[2] Реформатский А.А. Введение в языкознание. – М., 1960. – С.55.
[3] Пешковский А.М. Понятие отдельного слова. Сборник статей. – Л.,1925. – С.122.
[4] Соссюр Ф.де. Избранные труды по языкознанию. – М., 1977. 143-б.
[5] Слюсарева Н. А. Теория Ф. де Соссюра в свете современной лингвистики. – М., 1975. – Б. 37-39.
[6] Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М.,1955. – С.15.
[7] Кочергина В.А. Введение в языковедение. Основы фонетики-фонологии. Грамматика. – М., 1979. – С.83.

tiklanuvchanlik, 8) yaxlitlik va bir grammatik shaklga ega bo‘lish, 9) asosan so‘z birikmasi tarkibida qo‘llanish, 10) ayrimlik, 11) nominativlik, 12) frazeologik (ideomatik) xarakterga ega bo‘lish. So‘zning muhim xususiyatlari sonini yanada ko‘paytirish mumkin.[1]

Yevropa tilshunosligida ham, rus tilshunosligida ham so‘zga ta’rif berishda: a) delimitatsiya (lotincha *delimitatio* - chegara qo‘yish), ya’ni so‘z, u anglatadigan ma’no, munosabatlarning chegarasini aniqlash, b) identifikatsiya (lotincha identifico – o‘xshatish, taqqoslash), so‘zning turli qo‘llanishlarda, shakllarda bo‘lgan ko‘rinishlarini, o‘xshash tomonlarini aniqlash kabi ikki jihatini qamrab olishga harakat qilingan.

Umuman, barcha ta’riflarda so‘zga lingvistik birlik sifatida yondashilgan.

So‘z ta’rifi masalasida o‘zbek tilshunoslari so‘zning muhim xususiyatlarini birma-bir sanash yo‘lidan emas, balki uning asosiy, yetakchi belgisini aniqlash va ta’rifni shu belgi asosida yaratish yo‘lidan borishga urinib ko‘rishdi. Bu jihatdan so‘zni fonetik va grammatik belgilar asosida ta’riflashga urinishlar ancha ibratli bo‘lganligini I.Quchqortoev ham tasdiqlaydi.[2] C.Usmonov so‘zga shunday ta’rif beradi: «So‘z kollektiv a’zolari tomonidan bir xilda talaffuz qilinib, bir xilda idrok qilinadigan hamda biron predmet (hodisani) bildiradigan yo ular haqidagi tushunchalarni esga soladigan bitta tovush yoki bir necha tovush birikmasi sifatida shakllangan ishora (simvol) dir.[3] Xuddi shu mazmundagi ta’riflar o‘zbek tilshunosligiga oid barcha ilmiy adabiyotlardan o‘rin olgan edi.

Biz yuqorida so‘z masalasida xorijiy tilshunoslikda ham o‘zbek tilshunosligida ham bildirilgan fikrlardan ayrimlarini ko‘zdan kechirdik. So‘z tilning (nutqning ham) juda murakkab tabiatli serqirra va sermazmun elementidir. So‘zning tilshunoslar oldida yechilmagan jumboqqa aylanishiga sabab uning turli-tuman ma’nolar anglatishida ekanligini ko‘rdik. Bu tilshunosligimizda allaqachon o‘z tasdig‘ini topgan bo‘lsa-da, so‘z bilan bog‘liq masalalar o‘z yechimini topgani yo‘q.

Xususan, o‘zbek tilshunosligida sistem-struktur tilshunoslikning shakllanishi natijasida til-nutq dixotomiyasining farqlanishi oqibatida so‘zning ko‘lami birmuncha toraydi. Uning faqat nutq birligi sifatida qarala boshlashi o‘zbek tilshunosligida keyingi paytlarda turli munozaralarga sabab bo‘ldi. o‘zbek sinxronik tilshunosligida til va nutq hodisalarini farqlagan holda tilga tizim sifatida yondoshish metodikasining joriy etilishi yangicha qarashlarni shakllantirdi. Shu jumladan, so‘zga bo‘lgan munosabatni ham o‘zgartirdi. Endi so‘z universal til birligi sifatida emas, faqat nutqda namoyon bo‘luvchi vosita (nutq birligi) deya e’tirof etila boshlandi. «O‘zbek nutqidagi tub va yasama, sodda, qo‘shma va murakkab so‘zlarni sistem tilshunoslik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish shuni ko‘rsatadiki,- deydi prof.H.Ne’matov, - so‘z hamisha nutq birligi bo‘lib, tildagi morfemalarning turli tipdagi birikish konstruktsiyalarining mahsulidir. o‘zak va affiksal morfemalarning birikish qonuniyatlari, tub, yasama sodda so‘zlar sostavidagi o‘zak va affiksal morfemalar, sodda, qo‘shma, murakkab yasama so‘zlarning yasalish modellari til birliklari bo‘lib, ular nutqdagi so‘zlarda konkret formalarda (variantlarda) ro‘yobga chiqadi. So‘zga til birligi sifatida ta’rif berib bo‘lmaydi, chunki u til birligi emas».[4] Olim so‘zga yagona ta’rif berib bo‘lmasligining sababi sifatida so‘zda juda ko‘p tomonlar, hodisa va xususiyatlar, mazmun va forma assemetriyasi, grammatika va atamalik funktsiyasi o‘z aksini topishini ko‘rsatib o‘tadi.

Bu mulohazalarga ayrim tilshunoslar tomonidan e’tirozli fikrlar bildirildi. Jumladan, A.Nurmonov so‘zning til sistemasidagi o‘rnini inkor etish tilshunoslikda yangi hodisa emasligini ta’kidlab, so‘zni til birligi sifatida rad etish, morfemaga til birligi sifatida qarash, ayniqsa, strukturalizmning rivojlangan davrida kuchayganini ta’kidlaydi va so‘zning tildagi mvqeyi xususida o‘z mulohazasini shunday bayon etadi: «Agar tilga barcha bilimlarimizni avloddan-avlodga yetkazish (kumulyativ), olamni bilish (gnoseologik) va axborot berish (kommunikativ) vositasi sifatida yondoshganda ham, til va nutq qarama-qarshiligini xoh gnoseologik, goh ontologik va pragmatik nuqtai nazardan belgilanganda ham, til birliklariga lingvistik belgi nuqtai nazardan baho berilganda ham, so‘z til bosqichining markaziy birliklaridan biri bo‘lib tura beradi. Xullas, til va nutq birliklariga qaysi nuqtai nazardan yondashishdan qat’i nazar, bari bir til bosqichida so‘zning o‘z o‘rni bor».[5]

O‘zbek tilshunosligida sistemaviy-struktural tilshunoslikning rivojlanish jarayonida shu paytgacha til birligi sifatida qaralib kelingan so‘z atamasiga nisbatan o‘zgacha munosabatda bo‘lindi. Chunonchi, I.A.Boduen de Kurtene tomonidan tildagi eng kichik ma’noli birlik sifatida morfemaning ajratilishi so‘zning mavqeini pasaytirdi, ya’ni endi so‘zga tilning asosiy birligi sifatida qaramasdan u ham boshqa birliklar bilan bir qatorda qo‘yila boshlandi. Tilshunoslikda, xususan, o‘zbek tilshunosligida ham so‘zni til birligi

[1] Шмелев Д.Н. Проблемы семантического анализа лексики. – М., 1973. – С. 38.
[2] Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 9-10.
[3] Усмонов С. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972. – Б.126.
[4] Неъматов Ҳ. Сўз, унинг тил ва нутқдаги ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти. 1998. №5. – Б. 42.
[5] Нурмонов А. Сўз ҳақида сўз // Ўзбек тили ва адабиёти. 1991. №5. – Б. 67-71.

sifatida qo‘llash borasida zid qarashlar paydo bo‘ldi. Uning o‘rnida til birligi sifatida leksema termini ishlatila boshlandi.

O‘zbek tilshunosligida til-nutq, leksema-so‘z munosabatlari doirasida turlicha qarashlar yuzaga keldi. Leksema-so‘z masalasida A.Hojiyev shunday munosabat bildiradi: «Leksema bilan so‘z masalasiga keyingi vaqtlarda (tilni sistema sifatida o‘rganishga bag‘ishlangan ishlarda) alohida e’tibor qaratila boshlandi. o‘zbek tilshunosligida ma’lum vaqtlar davomida, aniqrog‘i, lison va nutqni, shuningdek, lisoniy birlik va nutqiy birlikni farqlashga jiddiy e’tibor qaratilmagan vaqtlarda leksema va so‘z terminlari bir xil ma’noda («lug‘aviy ma’noli birlik» ma’nosida) qo‘llanavergan. Demak, leksema termini boshdayoq so‘z terminiga nisbatan biron-bir afzallikka egaligi, so‘zga nisbatan hodisaning mohiyatini to‘g‘ri, aniq ifodalaydigan termin ekanligi isbotlangan (asoslangan) holda qabul qilingan deya olmaymiz. Hozirda ham ahvol shunday, ya’ni leksema terminining so‘zga nisbatan afzallikka egaligini, so‘z termini o‘rnida leksema terminini qo‘llash shartligi isbotlanganicha yo‘q. Aksincha, o‘zbek tili materiallari bunday qilish uchun asos ham, ehtiyoj ham yo‘qligini ko‘rsatayapti. Mohiyatan bir-biridan farqli til birliklari farqlanmay, ular uchun so‘z termini qo‘llangan ekan, bu holni so‘z terminining aybi deb qarash to‘g‘ri bo‘lmaydi, balki u tilshunoslikning muayyan davrdagi darajasi, shu davr tilshunosligining saviyasi bilan izohlanadi. Har bir til birligining mohiyati aniq (to‘g‘ri) belgilangach, har biri uchun muvofiq termin yaratiladi. Bu bilan so‘z ortiqcha «yuk»dan qutiladi, unga ta’rif berish ham qiyin bo‘lmaydi. Demak, buning uchun lug‘aviy ma’noli birlikka nisbatan qo‘llanib kelgan so‘z terminini leksema termini bilan almashtirishga hech qanday ehtiyoj bo‘lmagan. So‘z termini lingvistik hodisaning mohiyatini, jumladan, lug‘aviy birlikning mohiyatini aniq ifodalab kelgan va hozir ham shunday imkoniyatga ega».[113] A.Hojiyevning so‘z o‘rnida leksema terminini qo‘llash nojoizligini isbotlovchi qarashlariga qo‘shilgan holda har ikkala atama til tizimida o‘z o‘rnida qo‘llangani ma’qul, deb hisoblaymiz. Bu borada Yo.Tojiyevning so‘zning universallik xususiyatini anglatuvchi quyidagi fikri diqqatga sazavor: «So‘z termini tildagi barcha tayyor so‘z deb tan olingan birliklarga nisbatan qo‘llanadi, ularning barchasini qamrab oladi. Aslida shu so‘z terminini lug‘aviy ma’no anglatuvchi va anglatmovchi barcha so‘zlarga nisbatan ishlatishning o‘zi kifoya bo‘lib, ularni mustaqil so‘zlar va yordamchi so‘zlar, alohida so‘z turkumlari tarzida ajratiladigan birliklarda ham ishlatish haqiqatan ham ma’quldir. Biroq ana shu so‘zlar ichidan maxsus, lug‘aviy ma’no anglatuvchilarni ajratib turib, ularga nisbatan leksema terminini qo‘llash ham mumkindir. Ammo hech majburiy emasdir».[2]

Morfemik sath tadqiqotchilaridan biri T.Mirzaqulov so‘z o‘rnida morfema terminidan foydalanishni tavsiya qiladi: «…so‘zlar morfologiyada mustaqil so‘zlar hamda yordamchi so‘zlarga bo‘linadi. Aslida shu o‘rinda so‘z atamasi o‘rnida morfema atamasini qo‘llash shakl yasash (morfologiya) mohiyatiga mos keladi. Shunga binoan, nisbiy avtonomlikka ega bo‘lgan, o‘zi yakka holda ham nutqda so‘z maqomini oladigan, ko‘p morfli so‘z tarkibida o‘zak bo‘lib keladigan birliklarni «yordamchi bo‘lmagan morfema» deb atashdan ko‘ra «mustaqil morfema» deb nomlash qulay va hodisaning mohiyatiga mos keladi. Mustaqil morfemalar leksik ma’noning shakllanishida faol qatnashadigan, biror tushuncha maydonlari bilan bog‘langan, so‘z turkumlari bo‘linishida mustaqil so‘zlarga, asosan, muvofiq keladigan morfemalardir».[3]

Olimning «yordamchi so‘zlar» atamasi o‘rnida «yordamchi morfemalar» terminidan foydalanish borasidagi tavsiyasining joiz tomoni shundaki, yordamchi so‘z sifatida turli bahslarga sabab bo‘layotgan affiks shaklidagi yuklamalar, bolovchilar munozarasiga barham beradi. Ya’ni bu yuklamalar yordamchi morfemalar tarkibiga kirib ketadi. Bu tavsiyaning nojoiz tarafi shundaki, yordamchi morfemalarga qo‘shimchalar va ularga vazifadosh birliklar (ko‘makchilar, vazifadosh ko‘makchilar, to‘liqsiz fe’llar, modal fe’llar, affiks yuklamalar, affiksoidlar, submorf birliklar, asemantik elementlar)ning kiritilishi ularning o‘zaro farqlanishiga halaqit beradi. Yana ham aniqrog‘i, yordamchi morfemalar tarkibiga grammatik vazifa bajaruvchi birliklar kiritilib, qolganlari bu tasnif doirasidan chetda qolmoqda. Natijada yordamchi morfemalar yordamchi so‘zlarni to‘liq qamrab ololmaydi. Buni T.Mirzaqulov shunday izohlaydi: «o‘zbek tilida leksik(so‘z yasalishi) va grammatik ma’no turli usullar yordamida ifodalanadi. Bu ma’nolarning ifodalanishida yordamchi so‘zlar ham keng ishlatiladi. Biroq morfemika faqat affiksal morfemalarga vazifadosh birliklarnigina o‘rganadi» (ta’kid bizniki - muall).[4] Demak, bu o‘rinda yordamchi morfemalar tarkibi bilan yordamchi so‘zlar tarkibi bir-biridan farqlanadi.

Leksema termini so‘zni tilning struktur elementi sifatidagina almashtirishi mumkin. Shuningdek, sintaktik sathda ham leksema emas, so‘z tushunchasi yetakchi ahamiyatga ega. Umuman, leksema – leksik

[1] Ҳожиев А. Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (тўртинчи мақола) // Ўзбек тили ва адабиёти. 2007. -№1. -Б.3-9.
[2] Тожиев Ё. Яна сўз, лексема, сўзшакл, морфема, морфемика ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 2008. №6. -Б.49-50.
[3] Мирзақулов Т. Грамматика ўқитишнинг лингвистик асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 23.
[4] Мирзақулов Т. Кўрсатилган асар. – Б. 37.

birlik, so‘z esa leksik-grammatik birlikdir. Yordamchi so‘zlar tadqiqi jarayonida so‘z (leksik-grammatik so‘z) atamasidan foydalanish maqdga muvofiq. Chunki so‘z terminining leksema, morfema, so‘zshakl kabi atamalarga qaraganda qo‘llanish doirasi kengdir. So‘z atamasidan keng foydalanishning yana bir sababi – so‘z turkumlari tasnifi masalasi bilan bog‘liq. Chunki til birliklarini nutq birliklaridan farqlanishi natijasida yuzaga kelgan leksema–so‘z masalasi so‘z turkumlari ob’ektini aniqlashda (leksema turkumi yoki so‘z turkumi) muammo yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammoni oldini olish maqsadida ham an’anaviy so‘z (ramziy) atamasidan foydalangan ma’qul.

Tilshunoslikda so‘z atrofida yana bir munozarali masala borki, bu yordamchi so‘zlarning so‘zligini inkor etishga qaratilgan fikrlar bilan bog‘liq. Vaholanki, tilshunoslikda yordamchi so‘zlarning so‘z emasligi, affiks-morfemalarga yaqinligi xususida ko‘plab tilshunoslar, jumladan, Ye.Kurilovich, A.Moiseev, A.Lыkov, A.Peshkovskiy, L.Shcherba, L.S.Barxudarov, I.Vukovich, O.Sunik, Ye.Kubryakova, S. Mayzel, N.Baskakov kabi olimlar o‘z mulohazalarini bildirishgan. Fikrimizcha, yordamchi so‘zlarni ham so‘z deb hisoblamaslik «so‘z» atamasini «leksema» tushunchasi bilan almashtirishdan kelib chiqqan, deb o‘ylaymiz. A.Hojievning «Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati»dagi bu atamalarning sharhini ko‘zdan kechiramiz: «Leksema. Tilning lug‘at tarkibiga xos birlik, til qurilishining lug‘aviy ma’no anglatuvchi unsuri».[1] «So‘z. Leksemaning nutqda muayyan shakl va vazifa bilan voqelangan ko‘rinishi. o‘z tovush qobig‘iga ega bo‘lgan, ob’ektiv narsa-hodisalar haqidagi tushunchani, ular o‘rtasidagi aloqani yoki ularga munosabatlarni ifodalay oladigan, turli grammatik ma’no va vazifalarda qo‘llanadigan eng kichik nutq birligi».[2] Darhaqiqat, bu sharhlarda so‘zning leksema deb atalishi, leksemaning esa lug‘aviy ma’no anglatuvchi unsur hisoblanishi yordamchi so‘zlarni so‘z deb atashga raxna soluvchi fikrlardir. Chunki yordamchi so‘zlarning lingvistik tabiati ularni sharhlardagi tarzda, ya’ni lug‘aviy birlik sifatida qarashga imkon bermaydi. Lekin masalaga biroz boshqacharoq tarzda yondashish uni oydinlashtiradi. Buning uchun so‘z atamasini kengroq ma’noda tushunish, boshqacharoq qilib aytganda, O.S.Axmanovaning so‘zga bergan ta’rifidan kelib chiqib ish tutish lozim bo‘ladi. O.S.Axmanova so‘zga ikki ma’noda ta’rif bergan: «So‘z (glossa) ingl. word, fr. mot, nem. wort, isp. palabra. 1. Voqelikning ma’lum «sohasi» («qismi») ning umumlashgan tarzdagi aksi sifatida fikr predmeti bilan bevosita munosabatga kirishga qodir bo‘lgan va mana shu keyingisiga yo‘nalgan gapni tashkil etadigan oxirgi chegaradir. 2. (erkin shakl) 1-chi ma’nodan farqli ravishda gapning yuzaga chiqish imkoniyati bo‘lgan va faqat sintaktik planda qaraladigan minimumidir».[3] U mana shu ikkinchi ma’noda tushuniladigan so‘zning: a) morfologik tuzilishi va o‘zgarishiga, b) semantik tiplariga, v) fonetik tiplariga, g) sintaktik vazifalariga, d) stilistik differentsiatsiyasiga, ye) adabiy tilga munosabatiga, j) kelib chiqishiga ko‘ra turlarini farqlaydi va sintaktik vazifalariga ko‘ra so‘zlarni yana quyidagicha nomlaydi: mustaqil (avtonom, avtosemantik, kategorematik, leksikografik, to‘liq ma’noli, to‘liq, asosiy, mustaqil, leksik), yordamchi (qisman grammatik, sinsemantik, sinkategorematik, grammatik, noto‘liq ma’noli, mustaqil bo‘lmagan, quruq, yuzaki, qisman, bog‘lovchi, bog‘liq); qaram, qaram bo‘lmagan, tayanch, ikkinchi darajali, kuchaytiruvchi, ajratib ko‘rsatuvchi, korrelyativ, yordamchi, bog‘lovchi (nisbiy) so‘zlar; yetakchi so‘zlar; kirish so‘zlar; kirituvchi so‘zlar; predikativ so‘zlar (shaxssiz predikativlar); juft so‘zlar; funktsional so‘zlar.[4] Ana shu nuqtai nazarga ko‘ra yordamchilarni ham bemalol so‘z deb hisoblashga va uni ikkkinchi ma’noda tushunishga to‘la asos bor.

Prof.Sh.Rahmatullayev ham bu xususida shunday fikr bildiradi: «so‘z o‘ta murakkab hodisa sifatida talqin qilinib, ayni vaqtda ham til birligi, ham nutq birligi bo‘lishi ta’kidlanadi. Asli til birligi bilan nutq birligining teng kelib qolishi yordamchilarda, o‘zgarmaydigan turkumlarda voqe bo‘ladi.[5] Lisoniy sathda olimning shu qarashiga tayangan holda «yordamchi leksema» yoki «yordamchi morfema» atamasidan emas, an’anaviy «yordamchi so‘zlar» terminidan foydalanilgani ma’qul.

Umuman, so‘z bilan bog‘liq turli bahs-munozaralar ko‘paysa-da, uning til tizimidagi o‘rni beqiyosdir. Binobarin, bugungi kunda o‘zbek tilshunosligida so‘z, so‘z turkumi, yordamchi so‘zlar kabi masalalarda bir to‘xtamga kelish muhimdir. Chunki, shusiz ham tilshunoslikda hal etilishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalar bisyordir. Ushbu maqoladan ko‘zlangan maqsad – o‘z munosabatimiz va qarashlarimiz orqali so‘zning muhim lingvistik birlik ekanligini, yordamchi so‘zlarning so‘z ekanligini, yordamchi so‘zlarning so‘z turkumi paradigmasidagi o‘rni mustahkam ekanligini yana bir bor ta’kidlashdan iborat edi.

[1] Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎМЭ, 2002. – Б. 56.
[2] Ҳожиев А. Кўрсатилган асар. 95-б.
[3] Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1969. – С. 422.
[4] Ахманова О.С. Кўрсатилган асар. – Б. 422.
[5] Раҳматуллаев Ш. Семема – мустақил тил бирлиги // Ўзбек тили ва адабиёти, 1984. №5. – Б. 17

Resume. In article goes speech about disputes round word. Are analyzed view the representatives of traditional linguists and system-structural linguists about word. Is investigated activity word in language, in speech, about that that word is universal unit in the *диапозоне* primary compared with lexeme and morpheme.

Резюме. В статье идёт речь о спорах вокруг слова. Анализируются взглядь представителей традиционных лингвистов и системно-структурных языковедов о слове. Исследуется активность слове в языке, в речи, о том что слово является универсальной единицей в своём диапозоне первичной по сравнению с лексемой и морфемой.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SHUKUR XOLMIRZAYEV NASRIDA MILLIY MENTALITETNING BADIIY TALQINI

Hamidova Muhayyoxon Obidovna,
Namangan davlat universiteti
o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi professori,
filologiya fanlari nomzodi

Badiiy adabiyotda milliy mentalitet masalasi xalqning ma'naviy olami, tarixiy tajribasi va madaniy qadriyatlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek nasri, ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmida, millat ruhiyati va shaxsning jamiyat bilan munosabatini chuqur badiiy tahlil etishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan Shukur Xolmirzayev nasri o'zining hayotiyligi, obrazlar tizimining boyligi hamda milliy an'ana va qadriyatlarga sodiqligi bilan alohida o'rin egallaydi. Yozuvchi asarlarida o'zbek xalqiga xos axloqiy me'yorlar, dunyoqarash va turmush tarzi yorqin badiiy ifoda topgan. Mazkur maqolada Shukur Xolmirzayev nasrida milliy mentalitetning badiiy talqini va uni ifodalashda qo'llangan adabiy vositalar tahlil qilinadi.

Shukur Xolmirzayev ijodi va unda milliy mentalitet masalasi o'zbek adabiyotshunosligida turli tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Xususan, yozuvchining nasriy asarlarida milliy xarakter, xalqona tafakkur, urf-odat va an'analar badiiy talqini adabiyotshunos olimlarning ilmiy ishlarida muhim tadqiqot obyekti bo'lib kelgan. Adabiyotshunoslar Sh.Xolmirzayev nasrining realizmga asoslanganligi, hayotiy voqelikni haqqoniy tasvirlashi hamda oddiy inson taqdirlari orqali milliy ruhni ochib berishini alohida ta'kidlaganlar.

Milliy mentalitet masalasi umumiy nazariy jihatdan ham qator ilmiy manbalarda yoritilgan bo'lib, unda millatning dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari va ijtimoiy ongini ifodalovchi omillar adabiy matn tahlilida muhim mezon sifatida qaraladi. O'zbek adabiyotiga bag'ishlangan tadqiqotlarda milliylik va badiiylik uyg'unligi, yozuvchi shaxsiyati bilan xalq ruhiyati o'rtasidagi bog'liqlik masalalari keng muhokama qilingan. Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Shukur Xolmirzayev nasrida milliy mentalitetning badiiy talqini masalasi hali ham izchil va kompleks tarzda tadqiq etishni talab etadi.

Mazkur maqolada analitik, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, etnofolkloristik, biografik, struktural tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil davomida Shukur Xolmirzayevning «Arpali qishlog'ida», «Qadimda bo'lgan ekan», «Ko'k dengiz» hikoyalari va «So'nggi bekat» romani tahlil qilindi. Ushbu asarlarda milliy mentalitet, avvalo, inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, oilaviy qadriyatlar, urf-odat va an'analar, shuningdek, axloqiy tan-